



SINTEK KONTENTNI INTELLEKTUAL MULK SIFATIDA KVALIFIKATSIYA QILISH MEZONLARI: MAS'ULIYAT BALANSI VA HOSILA ASARLARDAN FARQLASH MUAMMOLARI

Sa'dullayev Akobir Nurbek o'g'li

Jahon iqtisodiyot va diplomatiya Universiteti

Xalqaro biznes huquqi yo'nalishi magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20710797>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 5-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEY WORDS

sinetik kontent, kvalifikatsiya mezonlari, originallik, hosila asar, mas'uliyat balansi, instrumental vosita, sun'iy intellekt, ijodiy nazorat.

ABSTRACT

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining keng tarqalishi natijasida paydo bo'lgan sintetik kontent intellektual mulk huquqining klassik kvalifikatsiya mezonlarini — originallik, ijodiy ifoda va insoniy mualliflik tamoyillarini tizimli inqirozga uchratmoqda. Amaldagi huquqiy tizim sintetik kontentni mustaqil asar sifatida tan olish uchun yetarli normativ asos taqdim etmaydi, bu esa hosila asardan farqlash hamda iqtisodiy mas'uliyat taqsimotida huquqiy bo'shliq vujudga keltirmoqda. Ushbu maqolada sintetik kontentni intellektual mulk sifatida kvalifikatsiya qilishning nazariy mezonlari xalqaro sud amaliyoti va qiyosiy-huquqiy tahlil metodologiyasi doirasida tahlil etiladi. Tadqiqotda sun'iy intellekt tizimlarining instrumental tabiati (algoritmik shablonlar) ko'rsatib beriladi hamda deliktual mas'uliyat va eksklyuziv huquqlar simmetriyasiga asoslangan yagona kvalifikatsiya modeli taklif etiladi.

Kirish

Sintetik kontent — generativ sun'iy intellekt tizimlari tomonidan ishlab chiqarilgan matn, tasvir, audio va video materiallar — intellektual mulk huquqida yangi kvalifikatsiya muammosini vujudga keltirdi: bunday kontentni mustaqil asar, hosila asar yoki umuman huquqiy himoyasiz mahsulot sifatida baholash mezonlari hanuz aniq belgilanmagan. Klassik mualliflik huquqi doktrinasi «originallik» va «ijodiy ifoda» mezonlarini jismoniy shaxsning intellektual faoliyati bilan bog'laydi — bu tizim sintetik kontent tushunchasini nazarda tutmagan. Xalqaro miqyosda AQSh Mualliflik huquqi idorasi (*US Copyright Office*) hamda Yevropa Ittifoqining Sud amaliyoti hanuzgacha sun'iy intellekt mahsulotlariga insoniy mualliflik elementi yo'qligi sababli to'liq huquqiy muhofaza berishni rad etib kelmoqda. Biroq, ushbu yondashuv zamonaviy iqtisodiy-huquqiy munosabatlar va instrumental evolyutsiya talablariga javob bermaydi.

Muammoning ikki qatlami mavjud. Birinchidan, kvalifikatsiya: sintetik kontent qachon mustaqil asar, qachon hosila asar hisoblanadi va bu farqlash qanday huquqiy oqibatlar

keltirib chiqaradi? Amaldagi Fuqarolik kodeksining hosila asarlarga doir normalari majburiy ravishda «birlamchi individual asar» mavjudligini talab etadi, holbuki neyron tarmoqlar o'z tabiati ko'ra bitta asarni qayta ishlaymaydi, balki milliardlab tarqoq ma'lumotlar (*Big Data*) asosida mutloq yangi ob'ektni noldan sintez qiladi.

Ikkinchidan, mas'uliyat: sintetik kontent huquqbuzarlik vositasiga aylangan taqdirda foydalanuvchi, platforma va SI ishlab chiqaruvchisi o'rtasida mas'uliyat qanday taqsimlanadi? Ushbu ikki qatlam o'zaro chambarchas bog'liq — kvalifikatsiya mezonini mas'uliyat balansini bevosita belgilaydi.

Ushbu maqolada sintetik kontentni intellektual mulk sifatida kvalifikatsiya qilishning nazariy mezonlari, hosila asardan farqlash muammolari va mas'uliyat balansini qiyosiy-huquqiy tahlil metodologiyasi asosida o'rganiladi. Tadqiqot SI tizimlarining instrumental tabiati — algoritmik shablonlar orqali ishlashi — ni asosiy kvalifikatsiya mezonini sifatida belgilab, deliktual mas'uliyat va huquqlar simmetriyasiga asoslangan yagona model taklif etadi.

Sintetik kontentning huquqiy tabiati va kvalifikatsiya mezonlari

Intellektual mulk huquqida asarni himoya ostiga olishning zaruriy sharti -originallik mezonidir. AQSh Oliy sudi *Feist Publications v. Rural Telephone Service Co.* (499 U.S. 340, 1991) ishida originallikni ikki komponentga ajratdi: asar mustaqil yaratilgan bo'lishi va minimal darajada ijodiy ifodani o'z ichiga olishi lozim. Yevropa Ittifoqi Sud amaliyotida esa *Infopaq International A/S v. Danske Dagblades Forening* (C-5/08, 2009) ishida originallikni «muallifning o'z intellektual ijodi» sifatida belgiladi. Ikkala standart ham umumiy asosga tayanadi: originallik insonning erkin va ijodiy tanlovini talab etadi. Sintetik kontent esa aynan shu nuqtada klassik doktrina bilan to'qnashadi — generativ SI tizimi statistik ehtimollik algoritmlari asosida chiqish ma'lumotini ishlab chiqaradi, bu jarayon inson ijodiy tanlovidan tub farq qiladi.

SI tizimlarining huquqiy tasnifida instrumental vosita va mustaqil muallif nazaroyasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Klassik huquqiy nazariyada kamera fotograf uchun, qalam yozuvchi uchun qanday vosita bo'lsa, SI ham foydalanuvchi uchun shunday instrumental vositadir — degan yondashuv mavjud. Biroq ushbu analogiya sintetik kontent kontekstida chekli ishlaydi: kamera yoki qalam ijodiy qarorlarni o'zi qabul qilmaydi, generativ SI esa prompt asosida kompozitsiya, uslub, struktura va mazmunga doir mustaqil algoritmik qarorlar qabul qiladi. Shu sababli SI ni oddiy vosita sifatida kvalifikatsiya qilish texnik jihatdan noaniq, huquqiy jihatdan esa potensial zararli — chunki bu foydalanuvchiga to'liq mas'uliyat yuklab, platformani javobgarlikdan ozod etadi.

Sintetik kontentning huquqiy tasnifi uchta model doirasida tahlil qilinishi mumkin. Birinchi model — «mustaqil asar» tasnifi: foydalanuvchining prompt tuzish, parametrlarni belgilash va natijani saralash jarayonidagi ijodiy nazorati yetarli original hissa sifatida tan olinadi.

Ikkinchi model — «hosila asar» tasnifi: SI o'quv ma'lumotlari (training data) tarkibidagi asarlardan stilistik va strukturaviy elementlarni o'zlashtirgan bo'lsa, sintetik kontent ushbu asarlarning transformativ hosilasi hisoblanishi mumkin.

Uchinchi model — «huquqiy himoyasiz mahsulot» tasnifi: inson ijodiy ishtiroki minimal yoki yo'q bo'lgan taqdirda asar public domain rejimiga o'tadi. Amalda ushbu uch model o'rtasidagi chegara aniq belgilanmagan. Shu tariqa, sintetik kontentni an'anaviy uchta model doirasida kvalifikatsiya qilishga urinishlar neyron tarmoqlarning gibrid tabiatini to'liq qamrab ololmaydi. SI oddiy qalam kabi passiv vosita bo'lmasa-da, u mutloq mustaqil muallif ham emas, balki MS Word yoki Excel dasturlarining tayyor visual(yozuvli) ramkalari kabi, inson kognitiv irodasiga bo'ysunuvchi mukammal semantik shablonlar tizimidir. Demak, obyektini to'g'ri tasniflash uchun diqqatni Sining avtonomligiga emas, balki insonning tizim ustidan olib borgan 'ijodiy va texnik nazorati' (Temperature sozlamalari, prompt muhandisligi, iteratsiyalar zanjiri) darajasiga qaratish lozim. Aynan mana shu mezon sintetik kontentning

hosila asarlardan ajralib chiqadigan va mas'uliyat taqsimotini belgilaydigan bosh boshlang'ich nuqtasidir

Sintetik kontentni hosila asardan farqlash muammolari

Hosila asar doktrinasida klassik mualliflik huquqida birlamchi asarning transformativ qayta ishlash, tarjima, adaptatsiya yoki compilation shaklida yangi asar yaratilishini nazarda tutadi. Bern konvensiyasining 2(3)-moddasi va AQSh Copyright Act ning 101-moddasi hosila asarni «bir yoki bir nechta mavjud asarlarga asoslangan asar» sifatida belgilaydi. Ushbu ta'rif uchta zaruriy elementni o'z ichiga oladi: birlamchi asar mavjudligi, undan foydalanish fakti va transformativ original hissa. Sintetik kontent esa aynan shu uchta element kontekstida paradoksal vaziyatni vujudga keltiradi.

Birinchi muammo — «birlamchi asar» elementida yuzaga keladi. Generativ SI tizimlari o'quv ma'lumotlari (training data) sifatida millionlab mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan foydalanadi. *Andrey Bauer v. Stability AI (N.D. Cal., 2023)* va *Getty Images v. Stability AI (D. Del., 2023)* ishlarida sudlar aynan shu masalani ko'rib chiqdi: SI o'rgatish jarayonida himoyalangan asarlardan foydalanish mualliflik huquqini buzadimi? Agar bu savol ijobiy hal etilsa, sintetik kontent avtomatik ravishda hosila asar maqomini oladi va birlamchi asar egalari litsenziya to'lovi talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Agar salbiy hal etilsa — SI chiqargan mahsulot mustaqil asar sifatida tasniflanadi.

Ikkinchi muammo — «foydalanish fakti» elementida. Klassik hosila asar doktrinasida foydalanish fakti aniq — tarjimon original matni o'qib, uni boshqa tilga o'giradi. Generativ SI da esa bu jarayon tubdan boshqacha: tizim o'quv bosqichida asarlarni «o'qimaydi», balki ulardan statistik og'irlik koeffitsientlarini (weights) hosil qiladi. Yakuniy chiqish mahsulotida birorta birlamchi asarning aniq elementi mavjud bo'lmasligi mumkin. Shu sababli «foydalanish fakti» ni isbotlash an'anaviy huquqiy vositalar bilan deyarli imkonsiz — bu esa hosila asar tasnifini texnik jihatdan zaiflashtiradi.

Uchinchi muammo — «transformativ original hissa» elementida. AQSh Oliy sudi *Campbell v. Acuff-Rose Music (510 U.S. 569, 1994)* ishida transformativlikni «yangi ifoda, ma'no yoki xabar qo'shish» sifatida belgiladi. Sintetik kontent texnik jihatdan yangi ob'ekt yaratadi — biroq bu «yangilik» inson ijodiy tanlovining mahsuli emas, algoritmik ehtimollik taqsimotining natijasidir. Demak, transformativlik mezonini sintetik kontentga qo'llanilganda ikki qarama-qarshi xulosa chiqarish mumkin: algoritmik yangilik transformativlik uchun yetarli, yoki insoniy ijodiy niyat bo'lmasa transformativlik tan olinmaydi.

To'rtinchi muammo — milliy qonunchilikning formativ cheklovlarida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1043-moddasida keltirilgan hosila asarlar (tarjimalar, sharhlar, annotatsiyalar) mohiyatan muallifning individual va aniq manba ustida bajargan ijodiy mehnatini nazarda tutadi. Holbuki, foydalanuvchi SI tizimlariga prompt kiritganda, tizim mavjud asarlarni mexanik qayta ishlamaydi, balki inson irodasiga ko'ra MS Word dasturidagi tayyor ramkalar kabi, algoritmik imkoniyatlar doirasida noldan yangi intellektual arxitekturani sintez qiladi. Demak, yakuniy mahsulotda boshlang'ich asarning elementlari vizual yoki matniy jihatdan aniq identifikatsiya qilinmas ekan, uni amaldagi Fuqarolik kodeksining 1043-moddasi doirasida hosila asar deb kvalifikatsiya qilish qonun noo'rin amaliyot sifatida jo'riladi.

Ushbu to'rt muammoning yig'indisi shuni ko'rsatadiki, sintetik kontentni hosila asar sifatida tasniflash yoki undan mustaqil asar sifatida farqlash uchun amaldagi huquqiy vositalar yetarli emas. Shu sababli, hal qiluvchi mezon sifatida SI tizimining o'quv jarayonidagi holatni yakuniy mahsulotdan ajratish taklif etiladi: agar chiqish mahsulotida birlamchi asarning aniq ekspressiv elementi takrorlanmasa, sintetik kontent hosila asar emas, mustaqil asar hisoblanishi lozim.

Mas'uliyat balansi: foydalanuvchi, platforma va SI ishlab chiqaruvchisi

Sintetik kontent huquqbuzarlik vositasiga aylangan taqdirda — masalan, mavjud asarning nusxasini yaratish, shaxsga nisbatan yolg'on ma'lumot tarqatish yoki himoyalangan brendni taqlid qilish — mas'uliyatni aniq subyektga yuklash zarurati paydo bo'ladi. Amaldagi huquqiy tizimda uchta potensial mas'ul subyekt mavjud: foydalanuvchi (prompt muallifi), platforma (SI tizimini taqdim etuvchi) va SI ishlab chiqaruvchisi (modelni yaratgan kompaniya). Ushbu uchlik o'rtasida mas'uliyatni taqsimlash klassik delikt huquqning «sababiy bog'lanish» va «aybdorlik» mezonlarini yangi texnologik voqelikda qo'llashni talab etadi.

Foydalanuvchi darajasida mas'uliyat eng aniq ko'rinadi: agar foydalanuvchi ongli ravishda huquqbuzarlik maqsadida prompt kiritisa — masalan, muayyan rassom uslubini taqlid qilishni, himoyalangan matnni qayta ishlab chiqarishni yoki shaxsni haqorat qiluvchi kontent yaratishni so'rasa — to'g'ridan-to'g'ri aybdorlik shakllanadi. Biroq foydalanuvchining niyatini isbotlash amalda murakkab: prompt «Rembrandt uslubida portret yarat» huquqbuzarlik niyatini bildirmasligi mumkin. AQSh amaliyotida Andersen v. Stability AI (N.D. Cal., 2023) ishida sudlar aynan foydalanuvchi niyati va platforma mas'uliyati chegarasini belgilashga urindi.

Platforma darajasida mas'uliyat «vositachi mas'uliyati» doktrinasini orqali tahlil etiladi. AQShda Digital Millennium Copyright Act (DMCA) ning 512-moddasi platformalarga «xavfsiz harbor» (safe harbor) himoyasini beradi — bunda, platforma huquqbuzarlik haqida xabardor bo'lishi bilan kontentni o'chiradi. Biroq generativ SI kontekstida bu doktrina cheklangan ishlaydi: platforma passiv vositachi emas, balki huquqbuzarlik potensialiga ega tizimni faol taqdim etuvchidir. Yevropa Ittifoqida esa AI Act ning tegishli moddasida yuqori xavfli SI tizimlari uchun platformaga qo'shimcha majburiyatlarini yuklaydi.

SI ishlab chiqaruvchisi darajasida mas'uliyat- «mahsulot mas'uliyati» doktrinasini orqali shakllanadi. Agar SI modeli o'quv jarayonida himoyalangan asarlarni litsenziyasiz ishlatgan bo'lsa, — Getty Images v. Stability AI (D. Del., 2023) ishida aynan shu masala ko'rilmoqda — ishlab chiqaruvchi birlamchi mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi mumkin. Biroq bu yondashuv ham mukammal emas: ishlab chiqaruvchi modelni yaratadi, biroq foydalanuvchining aniq promptini nazorat qila olmaydi.

Ushbu uch darajaning tahlili shuni ko'rsatadiki, sintetik kontent keltirib chiqargan huquqbuzarliklarni yagona subyektga yuklab bo'lmaydi — mas'uliyat tabiatan taqsimlangan va kontekstga bog'liq. Bugungi kunda OpenAI, Google yoki Anthropic kabi platformalarning foydalanuvchi shartnomalari (Terms of Service) har qanday zarar, feyk yoki huquqbuzarlik uchun javobgarlikni istisnosiz ravishda foydalanuvchi zimmasiga yuklash tendensiyasidan foydalanmoqda. Biroq huquqning dual tabiatiga ko'ra, mas'uliyat-huquq simmetriyasi tamoyili ta'minlanishi shart: foydalanuvchi prompt darajasidagi ijodiy va kognitiv nazorat hamda qonun oldidagi to'liq javobgarligi evaziga — yakuniy mahsulotiga nisbatan eksklyuziv mulkiy huquqlarni ham o'zlashtirishi lozim. Platforma tizim darajasidagi profilaktik nazorat (filtrlash) uchun, ishlab chiqaruvchi esa o'quv ma'lumotlari darajasidagi litsenzion majburiyat uchun alohida-alohida, lekin mutanosib tarzda javobgar bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sintetik kontentni intellektual mulk sifatida kvalifikatsiya qilish masalasi klassik mualliflik huquqi doktrinasining uchta asosiy mezonini — originallik, hosila asardan farqlash va mas'uliyat taqsimotini — bir vaqtda inqirozga uchratmoqda. Amaldagi xalqaro va milliy huquqiy tizimlar sintetik kontentning gibrid tabiatini — algoritmik sintez va insoniy kognitiv nazoratning o'ziga xos uyg'unligi — to'liq qamrab olishga qodir emas.

Ushbu xulosalar asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1048-moddasiga (Hosila asarga bo'lgan mualliflik huquqi) quyidagi mazmundagi qo'shimcha qism kiritilishi taklif etiladi: «Sun'iy intellekt tizimlari yordamida yaratilgan va yakuniy mahsulotida birlamchi asarning aniq identifikatsiya qilinadigan elementi mavjud bo'lmagan kontent hosila asar sifatida tasniflanmaydi. Bunday kontentga nisbatan huquqiy maqomni belgilashda foydalanuvchining ijodiy nazorat darajasi asosiy mezon hisoblanadi.»

Bundan tashqari, platforma va SI ishlab chiqaruvchilari uchun mas'uliyat-huquq simmetriyasi tamoyilini milliy miqyosda mustahkamlash maqsadida «Sun'iy intellekt tizimlari to'g'risida»gi maxsus qonun loyihasi ishlab chiqish va unga quyidagi norma kiritilishi tavsiya etiladi: **«Generativ sun'iy intellekt tizimlarini taqdim etuvchi platforma foydalanuvchi shartnomasida barcha mas'uliyatni foydalanuvchiga yuklagan taqdirda, foydalanuvchi yakuniy mahsulotiga nisbatan eksklyuziv mulkiy huquqlardan ham mahrum qilinishi mumkin emas.»**

Xulosa qilib aytganda, sintetik kontentni huquqiy tartibga solish masalasi texnologik muammo emas — bu adolatli huquqiy tizim qurish masalasidir. Nazorat va javobgarlik simmetrik bo'lmas ekan, huquqiy tizim ham adolatli bo'lmaydi. O'zbekiston bu masalada asosli yondashuv tanlagan holda mintaqaviy huquqiy peshqadamlikka chiqish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism). — 1996-yil 29-avgust. — lex.uz <https://lex.uz/docs/-5603319>
2. O'zbekiston Respublikasi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonuni. — lex.uz <https://www.lex.uz/docs/-111189#-154265>
3. Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works (1886, Paris Act 1971). — WIPO. — Geneva, 1971.
4. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). — WTO. — Marrakesh, 1994.
5. US Copyright Act of 1976, 17 U.S.C. § 101 (Derivative works definition).
6. Digital Millennium Copyright Act (DMCA), 17 U.S.C. § 512. — 1998.
7. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council on Artificial Intelligence (AI Act). — Article 28. — 2024.
8. US Copyright Office. Copyright Registration Guidance: Works Containing Material Generated by Artificial Intelligence. — Federal Register, Vol. 88, No. 51. — 2023.

Sud amaliyoti:

9. Feist Publications, Inc. v. Rural Telephone Service Co., 499 U.S. 340 (1991).
10. Campbell v. Acuff-Rose Music, Inc., 510 U.S. 569 (1994).
11. Infopaq International A/S v. Danske Dagblades Forening, Case C-5/08, CJEU, 16 July 2009.
12. Andersen v. Stability AI Ltd., No. 3:23-cv-00201 (N.D. Cal., 2023).

13. Getty Images (US), Inc. v. Stability AI, Ltd., No. 1:23-cv-00135 (D. Del., 2023).
14. Thaler v. Perlmutter, 687 F. Supp. 3d 140 (D.D.C. 2023).
15. Thaler v. Perlmutter, No. 23-5233 (D.C. Circuit, March 18, 2025).



INNOVATIVE
ACADEMY